

XIII. O‘RTACHA OYLIK NOMINAL HISOBLANGAN ISH HAQI


Ish haqi. 2024- yil yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ish haqi tahlili quyidagilarni ko‘rsatmoqda:

Shahar va tumanlar kesimida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi
(2024- yil yanvar-mart oylarida qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik
subyektlaridan tashqari, ming so‘m)

<i>Shahar va tumanlar</i>	<i>O‘rtacha oylik ish haqi, ming so‘m</i>		<i>O‘shish sur‘ati, %</i>
	<i>2023- yil</i>	<i>2024- yil</i>	
Xorazm viloyati - jami:	3 422,7	4 008,6	117,1
<i>shu jumladan:</i>			
Urganch sh.	4 490,5	5 426,4	120,8
Xiva sh.	2 791,5	3 269,2	117,1
Bog‘ot	2 832,6	3 175,5	112,1
Gurlan	2 581,2	2 930,1	113,5
Qo‘shko‘pir	2 758,2	3 074,3	111,5
Urganch	3 071,0	3 657,6	119,1
Hazorasp	2 668,9	2 927,1	109,7
Tuproqqal‘a	4 513,1	5 121,5	113,5
Xonqa	2 885,9	3 225,6	111,8
Xiva	2 772,8	3 206,6	115,6
Shovot	2 801,3	3 098,2	110,6
Yangiariq	3 344,6	3 943,1	117,9
Yangibozor	2 407,5	2 915,4	121,1

O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko‘rsatkichini viloyat hududlari bo‘yicha ko‘radigan bo‘lsak, o‘rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Urganch shahrida 5 426,4 ming so‘mni (viloyatdagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan 135,4 %), Tuproqqal‘a tumanida 5 121,5 ming so‘mni (127,8 %) tashkil etgan bo‘lsa, Yangibozor tumanida 2 915,4 ming so‘mni (72,7 %), Hazorasp tumanida 2 927,1 ming so‘mni (73,0 %), Gurlan tumanida 2 930,1 ming so‘mni (73,1 %) tashkil etib, boshqa tumanlarga nisbatan kam miqdorga ega bo‘lmoqda.

Shahar va tumanlar kesimida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi
(2024- yil yanvar-martida qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so'm)



Shahar va tumanlar kesimida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi
(yanvar-mart oylarida qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so'm)




**Sohalar kesimida yuridik shaxslarda o‘rtacha oylik nominal
hisoblangan ish haqi**
(2024- yil yanvar- mart oylarida qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik
subyektlaridan tashqari, ming so‘m)

<i>Sohalar nomi</i>	<i>O‘rtacha oylik ish haqi, ming so‘m (yanvar- dekabr)</i>		<i>O‘sish sur‘ati, %</i>
	<i>2023- yil</i>	<i>2024- yil</i>	
Xorazm viloyati - jami:	3 422,7	4 008,6	117,1
<i>shu jumladan:</i>			
Sanoat	3 945,8	4 359,2	110,5
Qurilish	3 315,7	4 480,7	135,1
Savdo	2 806,7	3 141,4	111,9
Tashish va saqlash	6 415,0	8 640,0	134,7
Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	2 167,2	2 490,8	114,9
Axborot va aloqa	6 269,3	7 881,8	125,7
Moliyaviy va sug‘urta faoliyati	8 889,2	11 106,3	124,9
Ta‘lim	2 756,7	3 251,4	117,9
Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar	2 985,5	3 505,0	117,4
San‘at, ko‘ngil ochish va dam olish	2 476,1	2 871,2	116,0
Boshqa faoliyat turlari	3 926,0	4 550,8	115,9


Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ish haqi ko‘rsatkichlarini umumlashtirish natijasida, 2024- yil yanvar-mart oylarida Xorazm viloyatida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 4 008,6 ming so‘mni (ish haqiga ustama, mukofot, rag‘batlantirish xususiyatiga ega to‘lovlar, kompensatsiya va ishlanmagan vaqt uchun haq kabi to‘lovlar kiritilgan, shuningdek, uning tarkibida jismoniy shaxslar daromad solig‘i, ijtimoiy sug‘urta va kasaba uyushmasiga to‘lovlar ham mavjud) tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 17,1% ga o‘sishi kuzatildi.

2024- yil yanvar-mart oylarida 2023- yilning mos davriga nisbatan iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining yuqori o‘sish sur‘ati qurilishda - 35,1 %, tashish va saqlash faoliyatida – 34,7 %, axborot va aloqada– 25,7 %, moliyaviy va sug‘urta faoliyatida – 24,9 %, ta‘lim– 17,9 %, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda – 17,4 %, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlarida – 14,9 %, savdoda – 11,9 %, sanoatda– 10,5 % darajada kuzatildi.

O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori va o‘shish sur‘ati
(2024- yil yanvar-martda qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so‘mda)



Sanoat sohasida o‘rtacha oylik ish haqining yanvar- mart oylarida yillar kesimidagi dinamikasi



2024- yil yanvar-mart oylarida sanoat sohasi bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 4 359,2 ming so‘mni tashkil qilgan bo‘lsa, 2020- yilning huddi shu davrida 2 825,8 ming so‘mni, 2021- yilda 2 717,9 ming so‘mni, 2022- yilda 3 422,7 ming so‘mni, 2023- yilda 3 945,8 ming so‘mni tashkil qilgan va o‘tgan yillarga nisbatan 154,3 % darajada ko‘paygani kuzatildi.

Sanoatning asosiy tarmoqlari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi, ming so'm



4 273,6

Ishlab chiqarish sanoati



2 577,8

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish




5 803,1

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash


Sanoatning asosiy tarmoqlari bo'yicha 2024- yil yanvar-mart oylarida o'rtacha oylik ish haqi ishlab chiqarish sanoatida – 4 273,6 ming so'mni, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilishda – 2 577,8 ming so'mni, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda – 5 803,1 ming so'mni tashkil qilgani ko'rsatilgan.

Sohalar kesimida yuridik korxonalarda ishlovchi xodimlar soni


(2024- yil yanvar-mart, viloyatdagi ishlovchi xodimlarga nisbatan, % da)



Qurilish sohasida oʻrtacha oylik ish haqi



Qurilish sohasida oʻrtacha oylik ish haqining yanvar-mart oylarida yillar kesimidagi dinamikasi



2024- yil yanvar-mart oylarida qurilish sohasi boʻyicha oʻrtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 4 480,7 ming soʻmni tashkil qilgan boʻlsa, huddi shu davr 2020- yilda 2 261,8 ming soʻmni, 2021- yilda 2 762,8 ming soʻmni, 2022- yilda 3 132,6 ming soʻmni, 2023- yilda 3 315,7 ming soʻmni tashkil qilgan va oʻtgan yillarga nisbatan 98,1 % ga oshgani kuzatildi.

**Sohalar kesimida yuridik shaxslar soni va ishlovchi xodimlar soni,
nominal hisoblangan ish haqi, o‘rtacha oylik ish haqi**

(2024- yil yanvar-mart oylarida qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)

	<i>Xodimlar soni, kishi</i>	<i>Ish haqi fondi, mln so‘m</i>	<i>Ortacha oylik ish haqi, ming so‘m</i>
	2024- y.	2024- y.	2024- y.
Xorazm viloyati – jami:	140 544	1 690147,3	4 008,6
<i>shu jumladan:</i>			
Sanoat	19 520	255 276,1	4 359,2
Qurilish	2 073	27 865,3	4 480,7
Savdo	1 072	10 102,6	3 141,4
Tashish va saqlash	3 986	103 316,8	8 640,0
Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	59	440,9	2 490,8
Axborot va aloqa	802	18 963,6	7 881,8
Moliyaviy va sug‘urta faoliyati	2 438	81 231,8	11 106,3
Ta‘lim	65 869	642 505,3	3 251,4
Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar	25 473	267 846,9	3 505,0
San‘at, ko‘ngil ochish va dam olish	1 833	15 788,6	2 871,2
Boshqa faoliyat turlari	17 419	237 813,4	4 550,8

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ko‘radigan bo‘lsak, **sanoatda** - 19 520 nafar xodim ishlagan bo‘lib, ishlovchilarga hisoblangan ish haqi fondi 255 276,1 mln so‘mni, o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 4 359,2 ming so‘mni, **qurilishda** – 2 073 nafar xodim ishlagan bo‘lib, ishlovchilarga hisoblangan ish haqi fondi 27 865,3 mln so‘mni, o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 4 480,7 ming so‘mni, **savdoda** -1 072 nafar xodim ishlagan bo‘lib, ishlovchilarga hisoblangan ish haqi fondi 10 102,6 mln so‘mni, o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 3 141,4 ming so‘mni, **tashish va saqlashda** – 3 986 nafar xodim ishlagan bo‘lib, ishlovchilarga hisoblangan ish haqi fondi 103 316,8 mln so‘mni, o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 8 640,0 ming so‘mni, **axborot va aloqada** - 802 nafar xodim ishlagan bo‘lib, ishlovchilarga hisoblangan ish haqi fondi 18 963,6 mln so‘mni, o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 7 881,8 ming so‘mni, **moliyaviy va sug‘urta faoliyatida** – 2 438 nafar xodim ishlagan bo‘lib, ishlovchilarga hisoblangan ish haqi fondi 81 231,8 mln so‘mni, o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 11 106,3 ming so‘mni, **ta‘limda** -65 869 nafar xodim ishlagan bo‘lib, ishlovchilarga hisoblangan ish haqi fondi 642 505,3 mln. so‘mni, o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 3 251,4 ming so‘mni, **sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda** -25 473 nafar xodim ishlagan bo‘lib, ishlovchilarga hisoblangan ish haqi fondi 267 846,9 mln so‘mni, o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 3 505,0 ming so‘mni tashkil etgan.

Tashish va saqlash sohasida 2024-yilning yanvar-martida o'rtacha oylik ish haqi



O'rtacha oylik ish haqining yillar kesimidagi dinamikasi, *ming so'm*




2024- yil yanvar-mart oylarida tashish va saqlash sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 8 640,0 ming so'mni tashkil qilgan bo'lsa, huddi shu davr 2020- yilda 4 396,3 ming so'mni, 2021- yilda 4 177,9 ming so'mni, 2022- yilda 6 555,9 ming so'mni, 2023- yilda 6 415,0 ming so'mni tashkil qilgan va o'tgan yillarga nisbatan 96,5% ga oshgani kuzatildi.

Ta'lim faoliyati bo'yicha shahar va tumanlar kesimida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi (viloyat ko'rsatkichiga nisbatan)
(2024-yil yanvar-mart oylarida qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so'm)

<i>Shahar va tumanlar nomi</i>	<i>O'rtacha oylik ish haqi, ming so'm</i>	<i>Viloyatga nisbatan foizda</i>
Xorazm viloyati	3 251,4	100,0
<i>shaharlar:</i>		
Urganch. sh	4 845,6	149,0
Xiva. sh	3 268,7	100,5
<i>tumanlar:</i>		
Bog'ot	2 982,8	91,7
Gurlan	2 732,2	84,0
Qo'shko'pir	2 695,1	82,9
Urganch	2 867,9	88,2
Hazorasp	2 788,9	85,8
Tuproqqal'a	2 686,2	82,6
Xonqa	3 079,8	94,7
Xiva	2 920,7	89,8
Shovot	2 925,5	90,0
Yangiariq	3 491,6	107,4
Yangibozor	2 730,1	84,0

Ta'lim sohasida jami 65 869 nafar (jami viloyatdagi ishlovchilarga nisbatan ulushi 46,9 % ni) xodim ishlagan bo'lib, ishlovchilarga o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 3 251,4 ming so'mni tashkil etgan va 2023- yilning mos davriga nisbatan 17,9 % ga o'sdi.

Ta'lim faoliyati bo'yicha o'rtacha oylik ish haqining yillar kesimidagi dinamikasi, ming so'm
(2024-yil yanvar-mart oylarida qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so'm)



STATISTIK KO'RSATKICHLARGA IZOHLAR

Nominal hisoblangan ish haqi – ma'lum bir davr (soat, oy, yil) mobaynida xodim tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot (bajarilgan ish yoki ko'rsatilgan xizmat) evaziga ish beruvchilar tomonidan, amaldagi qonun hujjatlariga asoslangan holda soliq va boshqa to'lovlarni o'z ichiga oluvchi yollanma xodimning mehnatiga haq to'lash tarzida jismoniy shaxsga pul shaklida hisoblangan daromadlardan iborat.

O'rtacha ish haqini hisoblash uchun qabul qilinadigan xodimlar soni – homiladorlik va tug'ish bo'yicha ta'tilda bo'lgan, bevosita tug'uruqxonaning o'zidan yangi tug'ilgan chaqaloqni farzandlikka olish munosabati bilan ta'tilda bo'lgan, hamda bolani uning qonun hujjatlariga muvofiq ma'lum bir yoshga to'lguniga qadar parvarish qilish bo'yicha ta'tilda bo'lgan ayollar; ta'lim muassasalarida o'qiyotgan va ish haqi saqlanmagan holda qo'shimcha mehnat ta'tilida bo'lganlar, shuningdek, ta'lim muassasalariga kirish imtihonlarini topshirish uchun ish haqi saqlanmagan holda ta'tilda bo'lgan xodimlarni inobatga olmagan holda, mehnat daftarchalari mavjud bo'lgan va ish haqi hisoblangan xodimlarning o'rtacha sonini ifodalaydi.

Ish vaqti- korxonada yoki muassasada muayyan ishni bajarish uchun qonuniy berilgan muddat ish kuni va ish haftasi bilan belgilanadi. Ish vaqti davomida ishlanmagan vaqt (nima sababdan sodir bo'lgani dan qat'iy nazar) bekor turish vaqti deyiladi.

Ish haqi- joriy davrda ish beruvchi tomonidan yollangan xodimga bajargan ishlari uchun berilgan pul yoki natura usulidagi to'lovlar bo'lib, ular hisoblangan summalar yig'indisidan tashkil topadi va ikki qismga bo'linadi: ish haqi va ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar.

Ish haqiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar- Bozor iqtisodiyoti sharoitida ish haqi hajmiga bir qator bozor omillari va bozordan tashqari omillar ta'sir ko'rsatadi, buning natijasida mehnatga haq to'lashning muayyan darajasi vujudga keladi. Bular tovarlar va xizmatlar bozorida talab va taklif o'zgarishlari, mehnatga bo'lgan talab, narxining o'zgaruvchanligi, iste'mol tovarlari va xizmatlar narxi o'zgarishi va boshqalar kiradi.